



ADABIY TIL TARAQQIYOTI JARAYONIDA MENTAL- MADANIY MULOQOT

Salohiy Dilorom Isomiddin qizi
filologiya fanlari doktori, professor, SamDCHTI

***Annotatsiya.** Maqolada turkiy adabiy tillar yaratilishi jarayonida mutafakkir shoir va adiblarning ijodiy uslublarida ko‘zga tashlangan g‘oyaviy-badiiy uyg‘unlik haqida so‘z yuritiladi. Mutafakkir ijodkorlar Sharqda kechayotgan romantizm sharoitida o‘zlarini o‘ylantirgan ijtimoiy masalalar xususida faqat badiiy so‘z va timsollar vositasida fikr-mulohazalar bildiradilar.*

***Kalit so‘zlar:** dunyo tillari, Eron va Turon, g‘ayrat-aql-ilm, Firog‘iy, “Qiyomat”, nasihatlar.*

KIRISH.

Turkiy-o‘zbek adabiy tilining asoschisi bo‘lmish mutafakkir shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy “Muhokamatul-lug‘atayn” asarida til ta’rifi va xususiyatlari haqida shunday yozadi:

“So‘zning turlari shu qadar ko‘pki, o‘ylash va tasvirlab chiqish mumkin emas. Agar mubolag‘a qilmay, yuzaki bayon qilinsa va qisqalik bilan yozib chiqilsa, yetmish ikki navga bo‘linib, yetmish ikki xalqning so‘ziga aylanishida hech bir so‘z yo‘q; lekin bundan ham ko‘pdir. U shundayki, yer yuzi yetti iqlimining har birida necha mamlakat bor, har bir mamlakatda necha shahar, shaharcha va kent bor va har dashtda necha xil sahronishin xalq, har bir tog‘ning kamarlarida va yuqorisida, har bir daryoning orolida va qirg‘og‘ida necha guruh odamlar bor. Har bir jamoaning tillari o‘zgalaridan va har guruhning so‘zlashuvlari yana birlaridan o‘zgacha va bir necha xususiyatlar bilan farqlidirki, bu ayirma o‘zgalarida yo‘qdir”.

Ulug‘ shoir shunday tushuntiradi: bu tillarning barchasidan arab tili nafislik bilan ajralgan va badiiylik bezagi bilan mo‘jiza ko‘rsatuvchandirki, bunda hech bir til ahllarining da’vosi yo‘q, so‘zi «to‘g‘ri» deyish va ishi taslim bo‘lish, xolos.

Bundan so‘ngra uch nav til borki, hamma tillarning aslidir va bu tillarning har biri o‘z gapiruvchilarining so‘zlashuvlariga mosdir. Bu tillarning shaxobchalari benihoya ko‘pdir. Ammo turkiy, forsiy va hindiy tillari asl tillarning chiqish o‘rnidirki, Nuh payg‘ambarning uch o‘g‘li: Yofas, Som va Homga borib yetishadi. Bu qisqa so‘zning tafsili shuki, Nuh to‘fon fitnasidan xalos topganda va uning halokatidan qutulganda dunyo yuzida bashar jinsidan asar va inson navidan namuna qolmagan edi. Bu vaqtda Yofasni – uni tarixchilar Abu-turk deb yozgan – Xitoy mamlakatiga yubordi. Somni – uni Abu-furs deb yozganlar – Eron va Turon mamlakatlarining o‘rtasiga hokim qildi. Homni esa – uni Abu-hind deb ataganlar – Hindiston mamlakatiga uzatdi. Bu uch payg‘ambarzodaning avlodlari va o‘zlariga qarashlilari mazkur mamlakatlarda yoyildilar, u yerlarda zichlashib ketdilar.

Uch til: turkiy, forsiy va hindiy tillari bu uchovining avlod va qaramlari o‘rtasida tarqaldi”.

Markaziy Osiyoda mo‘g‘ul istibdodidan so‘ng boshlangan turkiy yuksalish davrida turkiy tilda badiiy asarlar yaratishga bo‘lgan ehtiyoj kuchaydi. X-XII asrlar o‘zbek diniy adabiyotida, xususan, Xoja Ahmad Yassaviy ijodida turkiy she’riyatning asosiy tarkibiy omillaridan biri bo‘lmish xalqchilik an’anasi – badiiy fikrning til va uslub jihatidan oddiy xalqqa tushunarli, ta’sirchan she’riy ifodasi ko‘zga tashlansa, XVI asr boshlaridagi adabiy yodgorliklarda nafaqat mavzu va mazmun, balki shakl jihatidan ham o‘ziga xos turkonalikka intilish, aniqrog‘i, turkiy qo‘shiq uslubi va vazniga murojaat etish hollari kuzatiladi.

Turkiy adabiy til yaratilishi jarayonida bu tildagi xalqchil she’riyatning turkiy mumtoz she’riyat darajasiga yetishi, ma’lum bo‘lganidek, XV asrning ikkinchi yarimlarigacha davom etadi. Bu ijodiy takomil jarayoniga Alisher Navoiy lirikasi yakun yasadi. Navoiy qadimgi o‘zbek tilining taqdiri yuzasidan Sulton Husayn Boyqaro amalga oshirgan siyosati va amaliy tadbirlarni o‘ziga xos yo‘sinda qo‘llab-quvvatladi.



Turkiy she'riyatning badiiy qonuniyatlar tizimi talablariga yaqin, tabiiy rivojini yanada tezlatish uning adabiy-estetik o'ziga xosligi va ijtimoiy faolligini oshirish uchun nimalarga e'tibor qilmoq kerakligini Navoiy birinchi bo'lib anglab yetdi. Eng avvalo, shoir turkona uslubiy asoslardagi she'riyatning klassik uslub darajasidagi takomili uchun turkonalik an'analardan katta mahorat bilan foydalanib ijod qildi. U turkiy she'riyatni musta'zod va musammat kabi yangi janrlar bilan boyitdi. Bundan so'ng, betakror badiiy tasvir usullari va favqulodda ta'sirchan badiiy lavhalar yaratish bilan bir qatorda, tatabbu va tazmin san'atlarining ham yangicha namoyishini ko'rsatdi.

Donishmand adabiyot nazariyotchisi va mutafakkir shoir Alisher Navoiy benazir lirikada o'zbek she'riyatining qadimiy an'analari va badiiy o'ziga xosliklaridan ijodiy foydalanib ulkan ijodiy muvaffaqiyatlarga erishgan va bu hol avlodlar uchun alohida ibrat va xos maktab vazifasini o'tayveradi.

Turkiy til taraqqiyotining qardosh xalqlar adabiyotidagi ko'rinishlari, yozma adabiyotda adabiy til yaratilishi jarayoni ham nihoyatda qiziqarli.

O'n sakkizinchi asr o'rtalarida (taxminan 1733-yilda) Atrek daryosi yoqasidagi Hojigovshan qishlog'ida dunyoga kelib, ellik yoshlarida olamdan o'tgan ulug' turkman shoiri Maxtumquli Firog'iy o'z davri she'riyatiga yangi ruh va mazmun olib kirdi, bu bilan barcha turkiy tilli xalqlar orasida keng shuhrat qozondi.

Maxtumquli ijodining shakllanishida mumtoz sharq poetikasi uslublari, xususan tilga olingan benazir shaxsiyatlar asarlarining o'rni va ta'siri g'oyat katta bo'ldi. Uning badiiy jihatdan yuksak, mazmunan chuqur, mavzu yuzasidan rang-barang, ravon va maftunkor til bilan ijod etilgan asarlari nafaqat turkman xalqi, balki barcha turkiy tilli xalqlar orasida shuhrat qozondi, keng yoyildi.

Maxtumquli she'riyatini sevimli va ellarga taniqli qilgan xususiyat – undagi xalqchilik tamoyilidir. Shoir mumtoz ilmiy-badiiy tafakkurga ega bo'lgani holida, ijodi jarayonida xalq og'zaki ijodidan ham barakali ta'sirlangan. U lirik yaratmalarini xalq orasida keng yoyilgan qo'shiqlar janrlarida, marosim qo'shiqlari ohanglari yo'sinida, xalq tilida ko'p qo'llaniladigan iboralar, hikmatli so'zlar, maqol va matallardan foydalanilgan tarzda ijod etadi.

Ammo Maxtumquli she'riyarining el orasida juda keng yoyilib, mashhur bo'lib ketishiga sabab bo'lgan xususiyatlardan eng ustunu – bu undagi pand-o'git, nasihat motivlari, axloqiy-ma'naviy fikr-mushohadalar, ma'naviy qadriyatlar tashviqidir. Bu yo'sinda shoir ba'zan o'ziga ham nasihat qiladi, ijodining mohiyatini ham bayon etadi. Chunonchi:

Dono bo'lsang, miskinlarni unutm,
Afzal bo'lsang, nomardlarga bosh tutma,
Erk istasang, go'zal dostoning sotma,
Elingga baxsh aylab o'tgil, Firog'iy.

Jamiyat va inson muammolarini o'z ijodida teran tahlil etgan va bu sohada o'zining o'lmas insonparvar g'oyalari, fikr-mushohadalarini bayon etib ketgan alloma – Abay (Ibrohim) Qo'nanbay o'g'lidir. U – qozoq millatining yangi, yozma adabiyoti asoschisi, ma'rifatparvar shoir, olim, tarjimon, bastakor, o'z davrining benazir bir daho shaxsiyati edi.

Turmush tarzi ko'chib yurishlar – ko'chmanchilikka asoslangan, shu boisdan ham turli urug'larga bo'linib hayot kechirayotgan qozoq xalqini ma'naviy uyg'unlikka, barqaror va baxtli jamiyat egalari bo'lishga da'vat etar ekan, buni u kishi tabiatiga tez va samarali ta'sir etuvchi so'z vositasi – she'riyat va pandnomalar vositasida anglatishga harakat qildi. Shoir madaniyat va yuksak insoniy fazilatlarini targ'ib etuvchi 45 ta katta-kichik lavhalar – hikoyalardan iborat “Naqliya so'zlar”, ya'ni qadimdan naql qilinib – aytilib kelinayotgan so'zlar asarini yaratdi.

Abay jahon adabiyoti namoyandalari asarlaridan ham bahramand bo'lgan. Bu uning “Iskandar” dostonida, “Ajralganni bo'ri yer”, “Mas'ud”, “Azim rivoyati”, “Vadim” kabi asarlarida o'z ifodasini topgan.

Abay o'z jamiyati vakilining yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgan ma'rifatli va madaniyatli shaxs bo'lishini orzu qiladi va bunday orzusidagi shaxsni “to'liq odam” deya nomlaydi. U bu orzusining g'oyaviy formulasini ham tuzib beradi, ya'ni “to'liq odam” bo'lish uchun:

Aql, g'ayrat, yurakni birdek ushla,



Shunda to‘liq bo‘lasan eldan bo‘lak,
deya uqdiradi xalqiga.

Abayning “to‘liq odam” g‘oyasi o‘rta asrlar sharq shoirlari, faylasuflari va mutafakkirlari asarlarida o‘zining mufassal tadqiqi, tavsifi va talqinini topgan “komil inson” tushunchasining aynan o‘zidir. Bu olimning Sharq va G‘arb adabiyoti o‘zak masalalarini teran tushunib, o‘z ijodiga tadbiq etganligi, ijodiy yangilanganligi, yangi ruh va mazmun kiritishga harakat qilganligining isbotidir.

Ijodkor “yozuvchi” va “adib” bo‘lib qo‘liga qalam olishi bilanoq, o‘z xalqi, millati qalbining kashshofi - ochuvchisi, “koshiful-asrori” – sirlarini biluvchi sirdoshiga, “xalq dilining ko‘zgusi”ga aylanadi. Bu ko‘zguda butun bir millat ruhiyati, salohiyati, madaniyati o‘z aksini topadi.

Qirg‘iz xalqining jahon tanigan yirik adibi, mutafakkiri, olimi bo‘lmish Chingiz To‘raqulovich Aytmatov shunday shaxsiyatlardan biri edi.

Adibning asarlari dunyoning ellikdan ortiq tillariga tarjima qilingan. Uning asarlariga bo‘lgan qiziqish qirg‘iz xalqining ko‘p asrlik qadimiy an‘analarini, qadriyatlarini milliy ijtimoiy muhit fonida, millat va jamiyat muammolari bilan uyg‘un bir tarzda umuminsoniy masalalar maydoniga olib chiqishida ko‘rinadi.

Mutafakkir adibning o‘tgan asr 60-yillaridan boshlab turkiy tilli xalqlar adiblari ijodiga adabiy ta’siri kuchli bo‘ldi. U insonni mashaqqatli ruhiy iztiroblar chekib, turmush sinovlari va imtihonlari mehnatini his etib ma’naviy yuksaklikka ko‘tarilishi jarayonini mohirlik bilan aks ettiradi. Bu adibning xususiy adabiy-estetik pozitsiyasi, tasvir uslubi sifatida ko‘rinadi. Shu ma’noda adibning “Jamila” povesti g‘oyaviy-badiiy jihatdan nafaqat qirg‘iz adabiyotiga, balki jahon badiiy adabiyotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. O‘zbek yozuvchisi Odil Yoqubovning “Muqaddas” povesti mazmunan va badiiy tasvir nuqtai nazaridan bu asar bilan hamohanglik kasb etadi. “Erta kelgan turnalar” asarida Ikkinchi jahon urushining og‘ir yillarida ham insonlar qalbini qaynoq hissiyotlar, go‘zal tuyg‘ular to‘ldirib, bezab turganligining bayoni, albatta, nafaqat qirg‘iz xalqi, balki barcha sharq xalqlari adabiyotiga xos xususiyat sifatida ko‘zga tashlanadi. Ikkinchi jahon urushi davri front orti qiyinchiliklari, ayniqsa Markaziy Osiyo xalqlari hayotida chuqur iz qoldirganligi badiiy adabiyotda keng ifoda etilgan. Aytmatovning urush orti mavzusidagi qissa va hikoyalari mazmunan va g‘oyaviy jihatdan o‘zbek adibi O‘tkir Hoshimovning turkum hikoyalardan tashkil topgan “Dunyoning ishlari” romanida o‘z ifodasini topadi. Bu qissalarda asosan turli yoshdagi va ijtimoiy-maishiy muhitdagi ayol-qizlarning boy ichki ma’naviy dunyolari, ruhiy kechinmalari umuminsoniy muammolar kontekstida tasvirlanadi.

Chingiz Aytmatovning “Qiyomat” romanida ezgulik va yovuzlikning, haqiqat va yolg‘onning, diyonat va jaholatning o‘zaro kurashi insonlar va bo‘rilar oilasi orasidagi munosabatlar asosida yoritiladi. Asarda yigirmanchi asr o‘rtalarida insonlar o‘z to‘ymas nafslarini qondirishlari, moddiy manfaatlari uchun qirg‘iz cho‘llarida tabiatga, hayvonotga nisbatan qilgan vahshiyliklari qanday oqibatlariga olib kelganligi hikoya qilinadi. Nihoyatda maroqli xalqona til va uslub bilan bayon etilgan voqea-hodisalar tafsilotlari orqali adib tabiat mukammalligiga ziyon yetkazilishi, tabiiy boyliklar beayov istifoda etilishi, sarflanishi, vayron qilinishi, daxlsiz hududlarning o‘zlashtirilishi, o‘rmonlarning yo‘q qilinishi haqida iztirob bilan hikoya qiladi.

Kishilik boshiga tushgan xuddi shunday siyosiy balo, ijtimoiy ofat taniqli o‘zbek yozuvchisi Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarida ham o‘z ifodasini topgan. Bu asar qirg‘iz adibining “Qiyomat” romani kabi o‘zbek milliy adabiyoti tarixida muhim hodisa bo‘ldi. Asarda mustabid tuzum davrida yashab, butun umri dalada ketmon chopib o‘tganligi, to‘g‘riso‘zligi, halolligi, sharqona odobi, madaniyati sababidan xor-zor bo‘lgan mehnatkash o‘zbek xalqi Dehqonqul obrazi misolida talqin etiladi.

Ikki asarda ham ijtimoiy ruh – pafos keng ko‘lamda o‘z ifodasini topgan. Asarlar markazida esa totalitar tuzum, mustabid hokimiyat va shu hokimiyat boshqarib turgan jamiyatning o‘ta xiyonatkor, munofiq kimsalari qarshisida turgan ojiz, ammo to‘g‘riso‘z va pok qalbli insonlari tasvirlanadi.

Muxtasar xulosa shundan iboratki, nisbatan qisqa, tezislar tarzida bayon etilgan mulohazalardan ayon bo‘layotganidek, turkiy tillar va turkiy adabiyot bugungi megalisoniy maydonda o‘zining muqim va nufuzli mavqeini namoyon etmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. MAT, 20 tomlik, 9-t. – Toshkent, 1992.
2. Botir Valixo‘jayev. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. – Toshkent, 2023.
3. Абай. Қора сўз. – Тошкент, 2021.
4. Азиз Қаюмов. Асарлар. 10 жилдлик. – Тошкент, 2008-2010.
5. Баҳодир Карим. Абай маърифати. – Тошкент, 2025.
6. История Востока. Т. III. Восток на рубеже средневековья и нового времени. XVI—XVIII вв. — Москва: «Восточная литература» РАН, 2000.
7. Мухтар Ауэзов. Путь Абая. Роман. Том 1. – АЛМА-АТА, 1987
- ?? Холиков, Б. (2024). Образы пери (феи) и дэв (бесов) в циклах узбекского эпоса “Тороглы”. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(5), 171-175.
- ?? Kholikov, B. A. 1-sho ‘ba the language of fantasy: linguistic features in mythological and fantasy literature. Ilmiy va professional ta’lim jarayonida muloqot, fan va madaniyatlar integratsiyasi, 17.
 - ¹ Kholikov, B. A. (2020). Principles of development of detective literature. Bulletin of Gulistan State University, 2020(3).
 - ¹ Kholikov, B. A. (2015). Poetic outcome of vital problems. In The Fifth European Conference on Languages, Literature and Linguistics (pp. 82-89).
 - ¹ Холиков, Б. А. (2020). ИЖТИМОЙ-АХЛОҚИЙ МУАММОЛАРНИНГ БАДИИЙ ТАЛҚИНИДА ЁЗУВЧИ ИНДИВИДУАЛИГИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(6).
 - ¹ Холиков, Б. А. (2014). " КРЁСТНЫЙ ОТЕЦ"-РЕАЛЬНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ДЕЙСТВИТЕЛЬНОСТИ. Вопросы филологических наук, (2), 14-16.
14. Kholikov, B. (2020). PATRIOTIC EDUCATION IN THE LITERARY PICTURE OF THE WORLD (ON EXAMPLES DETECTIVE NOVELS). In МИССИЯ КОНФЕРЕНЦИИ «ФЕНОМЕН ПАТРИОТИЗМА В ТРАНССТРУКТУРНОМ КОММУНИКАЦИОННОМ ПОЛЕ» (p. 157).